



O'rta Osiyo mamlakatlarining qadimgi davr diplomatiyasi

Azizov Mahmudjon

Termiz davlat universiteti tarix fakulteti talabasi Azizov Mahmudjon

Abstract: in this article, the ancient diplomatic relations of the countries located in the Central Asian region and its uniqueness. You can get important information about mutual embassies of countries.

Keywords: diplomacy (greek- double-floded paper), ambassador (representative of one country in another country).

1. Introduction

Diplomatik munosabatlar har bir xalq,davlat hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan murakkab jarayon sanaladi. Aynan diplomatiya so'zi (yunoncha-ikki buklangan qog'oz) deb atalishi bejiz emas. Shu o'rinda O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari diplomatik munosabatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu munosabatlarning o'ziga xosligi va hozirgi diplomatik munosabatlar uchun poydevor vazifasini bajaradi desak xato qilmagan bo'lamiz.

O'rta Osiyo hududida mavjud sanalgan mamlakatlarning qadimgi davr diplomatik munosabatlari qanday ko'rinishda bo'lgan? Biz ularni qanday bilishimiz mumkin? Diplomatik munosabatlarda asosan nimalarga amal qilishgan? Degan bir qator savollar yuzasidan izlanish ishlari olib borish va uni o'rganib tahlil qilishning o'zni kattadir. Umuman qadimgi davr diplomatiyasi,xalqlari,davlatlarning joylashuvi,ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni biz qadimgi davr tarixchilari asarlaridan,qolaversa qoya-toshlar,teri va boshqa narsalarga yozib qoldirilgan yozuvlar orqali, shu bilan birgalikda arxeologik o'rganishlar natijasida ochib berishimiz mumkin. " O'rta Osiyo mamlakatlari diplomatiyasi tarixi-butunjahon tarixiy jarayoni birligini, xalqlar va madaniyatlarining tarixiy o'tmishdagi o'zaro hamkorligini va ayni vaqtda ushbu mintaqa rivojidadagi o'ziga xos jihatlarni hamda uning jahon diplomatiyasiga qo'shgan salmoqli hissasini tasdiqlovchi diplomatiya va xalqaro huquq butunjahon tarixining tarkibiy qismidir"¹. Bundan ko'rinib turibdiki O'rta Osiyo mamlakatlarining qadimgi davr diplomatik munosabatlari jahon diplomatik munosabatlarida o'ziga xos va mos xarakterga ega bo'lgan. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha asosiy manbalardan biri sanalgan "Avesto"ga nazar tashlar ekanmiz, diplomatik munosabatlarning ilk ko'rinishlari haqida ma'lumot olsak bo'ladi. Jumladan Mitra madhiyasida oliy tangri Ahura Mazda payg'ambar Spitam-Zardushtiyga murojaat qilishida shunday bayon keltirilgan:

"Mamlakatni razil buzadi,
O'z so'zida turmagan o'sha.
U yuzta ablxandan-da battar
Taqvodorlarni nobud qiladi.
Sen Spitamga berilgan



Shartnomaga ishonch bo‘l
Va yolg‘onchi g‘ayridinlarga
Va diyonatga sodiqlarga.

Axir shartnoma so‘zi

Ikkoviga ham mansub

Yolg‘onchilarga ham, rostgo‘ylarga ham”².

Bundan tashqari Avestoda boshqa bir qancha diplomatik munosabatlar haqida ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Lekin Avestoni o‘rganish ishlari yakuniga yetmaganligi va uning falsafasi to‘liq ochib berilmaganligi sababli ko‘plab fan oldida turgan savollarga javob berish qiyin sanaladi. Diplomatik munosabatlar haqida so‘zlar ekanmiz O‘rta Osiyo hududida joylashgan Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona, Parfiya kabi davlatlarning Ahamoniylar ta‘sir doirasiga tushib qolishi va ular bilan olib borilgan o‘zaro aloqalarga e‘tibor qaratmasdan ilojimiz yo‘q. Chunki eramizdan avvalgi VI asr o‘rtalari IV asr oxiri aynan Ahamoniylar bilan bog‘lanadi. Ahamoniylar hukmdori Kir (Kurush) ning bu dav-

latlar hududiga bostirib kirishi, ularni sak-massaget qabilalari bilan to‘qnashishiga sabab bo‘lgan. Manbalarda bayon etilishicha Ahamoniylar shohi Kir va massagetlar malikasi To‘maris (Tomiris) o‘rtasida urush boshlanishidan oldin elchilik aloqalari bo‘lganligi haqida dalillar saqlanib qolgan. Manbada shunday bayon etiladi: “Kir massagetlar malikasi qoshiga xushomadlik gaplar bilan elchi yuborib, o‘ziga xotin bo‘lishini so‘raydi. Kirga o‘zi emas massagetlar podsholigi kerakligini yaxshi fahmlagan Tamirida elchilarni qabul etmaydi. Nayrangi ish bermagan Kir Araksga yurdi va niyatini ochiq namoyon etib, qo‘shinini shuningdek yo‘lda kerak bo‘ladigan burjlarni sollarga qo‘yib olib o‘tish uchun ko‘prik qurishga tushadi. Bu ishga band ekan Tamiridaning jarchisi kelib quyidagi gaplarni aytdi: “Ey, Midiyaliklar podshosi, bu tadorigingni qo‘y. Zeroki, sening foydanga xizmat qiladimi, yo‘qmi bilmaysan. Tinchgina o‘z yurtida podsholingda yur, biz esa o‘z yurtimizda podsholik qilaylik. Biroq sen tinchlikni xohlamasligingdan bu maslahatga quloq osmaysan. Mayli, massagetlar bilan to‘qnashging kelsa kelaveru, biroq keraksiz ko‘prik qurishni qo‘y. Uch kunlik yo‘lga yiroqlashishimizga imkon ber-da, so‘ng daryodan o‘taver. Yoki, daryoning sizlarga tegishli qirg‘og‘ida to‘qnashmoq istaging bo‘lsa, biz qilmoqchi bo‘lgan ishni sen qil”³. Massagetlar malikasi Tamiris va ahamoniylar hukmdori Kir bilan bo‘lib o‘tgan elchilik munosabatidan shu narsa ayonki Kir massagetlar mamlakatini egallab olishda hiyla yo‘lini tanlab, uni amalga oshirmoqchi bo‘ldi. Ammo o‘z yurtiga bostirib kirgan dushmanga yaxshilikcha mamlakatni tark etib, qon to‘kilishini oldini olish borasida yuborilgan elchilarning fikrlariga ahamoniylar shohi amal qilmadi. Natijada Kurush aynan Tomir xotun bilan bo‘lgan jangda ajalini topadi. Podsho Doro bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarda, uning huzuriga “Shiroq ismli cho‘pon kelib, sak podsholari ustidan arz qiladi. Doroning rahmi kelib, hamda Shiroqning <<men forslar kuchi bilan o‘z dushmanlarim tazirini bermoqchiman>> degan so‘zlariga ishonib, uni o‘z yonida qoldiradi. Shiroq esa Doroga saklar turgan yerga qo‘qqisdan boshlab boraman deb vada beradi. Yetti kunlik yegulik va ichimlikni g‘amlab, Doro va uning qo‘shini Shiroq rahnamoligida yo‘lga tushadi. Qumliklar uzra ancha yo‘l bosib qo‘yganlarida Doroning sarkardasi Ranosbat Shiroqning xiyasini angelaydi. Undan nega ulug‘ shoh va qo‘shinlarni na bir o‘t, qush, hayvon ko‘rinadigan cho‘lu biyobonga boshlab kelishini sababini so‘raganda. Shiroq qah-qah kulib “Men yutdim vatandoshlarimni saklardan xavfni bartaraf etish uchun ochlik va tashnalikda forslar lashkarlarini o‘llasi qildim-ku” deb javob beradi. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib shuni ayta olamizki, Shiroqning forslar bilan olib borgan aloqalari vatan ozodligi uchun qilingan juda katta ish



hisoblanadi. U dushmani o'z rejasiga asosan mamlakat hududidan olib chiqib ketish va o'z xalqiga kelayotgan xatarni oldini olishga erishgan. Bu o'z- o'zidan amalga oshgan hodisa emas. Bunda o'ziga xos bo'lgan diplomatiya tili mavjud hisoblanib, u naqadar nozik ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

Undan keyingi davrda ya'ni eramizdan avvalgi IV asr oxiri va II asr ikkinchi yarmi fanda bu davr "Elinizim" davri deb hisoblanib, Aleksandr Makedoniskiy bilan bog'lanadi. Aleksandr Makedonskiy va Xorazm podshosi Xvorazman o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda eng nozik jihatlariga e'tibor berish lozim. Manbada bayon etilishicha: "Xvorazman 1500 otliq askar qo'riqchiligida Aleksandr huzuriga keladi. Xorazm hukmdori mazkur uchrashuvda harbiy ittifoq tuzib Qora dengiz tamon yurishni taklif etadi. Bu paytda Aleksandr Spitamen qo'zg'olonini bostirish bilan band edi. Shunday bo'lsada Aleksandr Xvorazmanga tashakkur aytib unga do'stlik ittifoqini tuzadi"⁴. Bu orqali Xvorazman Aleksandrning harbiy yurishlaridan o'z mamlakatini hududiy yaxlitligini saqlab qolishda foydalanadi.

"Buyuk ipak yo'lining g'arbdan keladigan savdo karvonlari aytaylik, Italiya, Ispaniya va boshqa o'rta yer dengizi mamlakatlarining savdogarlari ham o'z mollarini Tir, Damashq. Anatoliya, Bog dod orqali Parfiya davlati hududlari bo'ylab yana O'rta Osiyoning yirik savdo markazi Marvga olib kelar, shu yerdan sharq tomon yo'llarini davom ettirardilar. Shu ma'noda Marvning turli dinlar ildiz otgan, turli madaniyatlar tutashgan joy bo'lganligi alohida ahamiyatga molikdir. Miloddan avvalgi II asrgacha ham Sharq bilan G'arb o'rtasida O'rta Osiyo karvon yo'llari orqali amalga oshirilgan aloqalar mavjud bo'lgan. Bunga Tog'li Oltoydagi Poziriy qo'rg'onidan topilgan Kichik Osiyoda tayyorlangan buyumlar, Afg'oniston va O'rta Osiyodan topilgan yunon buyumlari misol bo'lishi mumkin. Iskandar Zulqarnayn (Maqduniy), (Buyuk Aleksandr) saltanati tuzilishi bilan bu aloqalar to'g'ri yo'lga solingan. Buyuk ipak yo'lining sharqiy qismini barpo etishda sug'diylar katta rol o'ynaganlar. Iskandar Zulqarnayn tomonidan Sug'diyona mamlakati istilo etilishi bilan ko'plab sug'diylar sharqqa tomon ko'chganlar va Buyuk ipak yo'lining markaziy qismini O'rta Osiyodan tortib Xitoyning Chanan shahrigacha bo'lgan oraliq masofada savdo faktoriyalari (manzilgohlari) bunyod etganlar"⁵.

Xitoy bilan diplomatik aloqalarda buyuk ipak yo'lining ahamiyati juda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Aynan buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi har ikki hududdagi savdo-iqtisodiy, siyosiy aloqalarda o'z samarasini berdi va berib kelmoqda. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat O'rta Osiyo mamlakatlari bilan balki ko'plab g'arb davlatlari bilan bo'lgan aloqalarni ham yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Xulosa o'rnida yuqorida keltirilgan O'rta Osiyo hududida joylashgan davlatlarning ahamoniylar hukmdorlari keyinchalik Maqduniy bilan bo'lib o'tgan diplomatik aloqalari tarixi va ularning o'ziga xosligini alohida ajratib ko'rsatish muhim hisoblanadi. Negaki bu ikki sulola o'z davrining yirik imperiyalari bo'lib, ular bilan murosa qilib yashash eng maqbul yo'l sanaladi. Qadimgi davlatlarni boshqargan va boshqarishda ishtirok etgan ajdodlarimiz o'z davri diplomatiyasini juda yaxshi bilgan va shu orqali munosabatlar olib borgan. Diplomatik munosabatlar davlatlar va xalqlar hayotida nihoyat darajada yuksak sanalishi bejiz emas albatta. Biz keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib diplomatik aloqalarning dastlabki bosqichi haqida to'xtaldik. Bu munosabatlar davrlar bo'yicha sayqallanib kelib, hozirgi diplomatik munosabatlarning vujudga kelishiga asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. E.V.Rtveladze, A.X.Saidov, E.V. Abdullayev “Qadimgi O‘zbekiston Sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquqi tarixidan lavhalar” Toshkent <<Adolat>> 2001-yil. 135-bet.
2. E.V.Rtveladze, A.X.Saidov, E. V. Abdullayev “Qadimgi O‘zbekiston Sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquqi tarixidan lavhalar” Toshkent <<Adolat>> 2001-yil. 137-bet.
3. Zohir Alam “Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida” Toshkent-2008. 64-bet.
4. Azamat Ziyo “ O‘zbek davlatchiligi tarixi” Toshkent-2000-yil. 31-bet.
5. O‘roqova Dilnoza “Qadimgi davr O‘rta Osiyo-Xitoy diplomatiyasi” jurnal of universal science research. 5-bet.